



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING SHAHAR RIVOJIGA TA'SIRI

**Xayrullayev Javohir
Sheraliyevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
E-mail: xayrullayevjavohir91@gmail.com

Annotatsiya: Yildan yilga shaharlarda aholi sonining o'sishi shahar infratuzilmasiga bo'lgan bosimni oshirmoqda. Shu sababli hukumatlar barcha uchun maqbul bo'lgan yechimlarni qidirish muhim ekanligini ta'kidlamoqda. Hozirgi kunda texnologik yechimlar barcha sohalarida muqobil yechimlar bermoqda. GIS (Geografik axborot tizimlari), aqlli energetika va kommunal tizimlar, shahar xavfsizligi va videokuzatuv tizimlari, ekologik monitoring tizimlari, aqlli shahar (Smart City) platformalari, aqlli transport tizimlari (ITS) kabi shahar uchun manfaatli bo'lgan raqamli tizimlar hukumatlar tomonidan taklif qilinmoqda.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, shahar rivoji, aqlli shahar, shahar infratuzilmasi, aqlli transport tizimlari, GIS.

Aholining yildan yilga o'sishi ko'plab aholini shaharga ko'chib kelishga undamoqda. Bu o'z navbatida shaharda ko'plab muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Transport bilan bog'liq muammolar hamda ijtimoiy obyektlarga tushadigan bosimlar sababli aholi orasida tabaqalanish vujudga kelmoqda. Shu sababli har bir sohada muhim hisoblangan raqamli texnologiyalar shahar muammolarini hal etishda qo'llanilmoqda.

Ko'plab shahar aholisi tirbandlik va noto'g'ri transport boshqaruvi bilan bog'liq muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ammo aqlli shahar loyihalari bu muammolarga yechim bermoqda. Ko'plab rivojlangan shaharlar aqlli svetoforlar va kuzatuv tizimlari orqali transport muammolarini yechishda asos bo'lmoqda. Geografik axborot tizimlari esa shahar harakatlanishida qulaylik yaratmoqda.

Shu bilan birga shaharlarda aholi sonining oshishi ko'plab ijtimoiy obyektlarga qo'shimcha bosim yuklamoqda. Chunki aholi zich joylashgan hududlarda shifoxona, maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida navbat kutish bilan bog'liq muammolar vujudga kelmoqda. Bu esa onlayn bron qilish tizimlarining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Ekologik holatni real vaqtda kuzatish tizimlari aholi salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqa tomondan, raqamli integratsiya siyosati kommunal to'lovlarni amalga oshirishda shahar aholisi uchun qulaylik yaratmoqda. Davlat barcha to'lovlarni real vaqtda masofadan qabul qilishi hamda ularni qayta ishlashi mumkin. Bu holat davlat va aholi o'rtasidagi munosabatlarni yanada samarali qiladi.

Aqlli shahar (Smart City) siyosati shaharlarda aholi farovonligini ta'minlash, ijtimoiy obyektlardan teng foydalanish hamda shaffof boshqaruvni yo'lga qo'yishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa

Bugungi kunda shaharlarning kengayishi va aholi sonining oshishi mahalliy hukumatlarni raqamli yechimlarga murojaat qilishga undamoqda. Aqlli shahar loyihalari shaharga ko'chib keluvchilar hamda tub aholi o'rtasida tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Elektron resurs: <https://digital.gov.uz>
3. United Nations. Smart Cities and Sustainable Urban Development. New York: United Nations.
4. World Bank.